

**ZAMAXSHARIYNING HAYOTI VA ILMIY-MA'NAVIY MEROSI.**

*Toshkent islom instituti “Aqoid va fiqhiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*  
**A.Allaberganov**

O‘rta asrlarda Xorazm diyorida azaldan jahon fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ko‘plab allomalar yetishib chiqqan. Ilm-fanning turli sohalari bo‘yicha samarali ijod qilgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon al-Beruniy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Ibn Miskavayh, Abu Nasr al-Iroq, Abu Sayhl Masihiy, Abulxayr ibn al-Hammor kabi olimlarning dong‘i butun Mag‘ribu Mashriqqa tarqalgan. Xorazm zaminida tavallud topgan buyuk allomalardan biri Abul Qosim Mahmud Zamaxshariydir. Uning to‘liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad (ba‘zi manbalarda Ahmad) bo‘lib, u 467/1075 yilda (rajab oyining 27-sanasi, mart oyining chorshanba kuni) Xorazmning katta qishloqlaridan biri Zamaxsharda tavallud topgan. Shu boisdan ham Zamaxshariy taxallusini olgan<sup>1</sup>. U Makkada yashagan paytda iskandariyalik bir shogirdi, “Al-Aqd as-samiyn fi tarix al-balad al-amiyn” nomli tarixiy asarning muallifi Shihobuddin Ahmad ibn al-Husniy al-Molikiyga yo‘llagan maktubida o‘zi haqida “Men Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Ahmad al-Xorazmiyman, keyin Zamaxshariyman. Xorazmning bir qishlog‘iga (Zamaxsharga) mansubman. Zamaxshar tug‘ilgan yurtimdir”, deb yozgan.

Zamaxshariyning hayoti va faoliyati haqidagi ma‘lumotlarni, asosan, o‘rta asr arab manbalarida, qisman olimning asarlarida keltirilgan. Bu tarzdagi ma‘lumotlarni Ibn Xallikon, Ibn al-Anbariy, Yekut al-Hamaviy, Muhammad al-Iofi‘iy, Ibn al-Javziy, Jaloliddin as-Suyutiy, Ibn al-Qiftiy va boshqa arab mualliflarining asarlarida uchratamiz. Mana shu mualliflar keltirgan dalillarga tayanib aytish mumkinki, Zamaxshariyning otasi unchalik badavlat bo‘lmasada, o‘z davrining savodli, taqvodor, diyonatli kishisi bo‘lgan. Aksar vaqtini Qur‘oni karim tilovatiyu toat-ibodat bilan o‘tkazgan va Zamaxshardagi bir masjidida imomlik ham qilgan. U xulq-atvori yaxshi, shirinsuxan va g‘oyat mehr-muruvvatli kishi sifatida el orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan. Onasi ham taqvodor va fozila, ma‘ri fatli ayollardan hisoblangan. Zamaxshariy dastlabki bilimni ona yurti Zamaxsharda o‘z ota-onasidan oldi<sup>2</sup>.

Yoshlik chog‘laridan ilm-irfonga intilgan Zamaxshariy bilim-tajribasini oshirish maqsadida dunyoning yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan Buxoroga yo‘l olgan. Ammo ilm izlovchi Zamaxshariy yo‘lda yuz bergan baxtsiz hodisa (otdan yiqilib, oyog‘i qattiq lat yegani, buning ustiga qahraton sovuq bo‘lgani) tufayli bir oyog‘ini kestirishga majbur bo‘ladi va butun umri davomida yog‘och oyoqda yuradi.

<sup>1</sup> Uvatov U. Mahmud az-Zamaxshariy. – Toshkent: Abdulla Qodiriy, 1995. – B. 9.

<sup>2</sup> Uvatov U. O‘zbekiston – Buyuk allomalar yurti. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2010. – B. 284.

Lekin bu nogironlik uning bilim olishiga to'sqinlik qila olmaydi. U yoshligidan ilm-fanning turli sohalarini, ayniqsa, arab tili va adabiyotini, diniy ilmlar majmuasini mukammal egallaydi. Ayni vaqtda o'sha davrda ilm ahl-lari orasida g'oyatda zarur va muhim hisoblangan xattot-lik san'ati sirlarini ham to'liq o'zlashtirib, uni ob-don egallaydi va bu bilan o'z oilaviy turmush sharoiti, tirikchiligini ham bir qadar yaxshilaydi. Jismoniy nogironligiga qaramasdan, az-Zamaxshariyning katta ishtiyoq va sobitqadamlik bilan bilim olish yo'lida ko'rsatgan bu jasorati va fidoyiligi har qanday tahsinga sazovordir va katta bir ibratdir.

Zamaxshariy hayoti bilan tanishar ekanmiz, uning ilm talabida qator xorijiy mamlakatlarga safar qilganligini ham ko'ramiz. Darhaqiqat, u Xuroson, Shom, Iroq, Hijozda bo'lganligi yozma manbalarda qayd etilgan. Mana shu yurtlarda bo'lganida az-Zamaxshariy o'sha davrning ko'p mashhur olimlaridan saboq oldi, ular bilan ilmiy, ijodiy munozaralarda ishtirok qildi, samarali hamkorlik rishtalarini bog'ladi. Allomaning Sharqning turli shaharlarida juda ko'plab shogirdlari bo'lgan. Ayniqsa, Makka shahrida besh yildan ortiq yashagan paytlari olim uchun goyatda serunum bo'ldi. Chunonchi, Makkada bepoyon musulmon olamining turli burchaklaridan kelgan ziyoratchilar uchun nafaqat muqaddas joy, balki yetuk olimlar, ilm toliblari to'planadigan katta ilmiy markaz, ijodiy maskan vazifasini ham o'tagan. Ilm toliblari, muqaddas shaharda yashagan Zamaxshariydek allomalardan har qadamda foydalanardilar. Ma'lumki, biron-bir allomaga nasib etmagan yuksak maqom Jorulloh ("Alloh-ning qo'shnisi") degan laqabga faqat buyuk vatandoshimiz Zamaxshariy musharraf bo'lgan. Arab olimi Shayx Muhammad Abu Zahro Makkada yashagan davrida Zamaxshariy aksar vaqtini haram masjidida o'tkazib, har doim uning atrofini adab ilmining toliblari, she'riyat ixlosmandlari, mav'izayu hikmatli iboralar shaydolari o'rab olib, undan saboq olganliklarini alohida ta'kidlagan.

Mana shu mulohazalarga tayanib aytish mumkinki, uning ustozlariyu shogirdlari turli elatlar va millatlarga mansub olimlar bo'lgan, ilm yo'lida Zamaxshariy tom ma'noda haqiqiy millatga ustoz bo'lish fazilatlarini namoyon qilgan. Chunonchi, unga bevosita shogird bo'lib olimdan to'g'ridan-to'g'ri saboq olgan shogirdlari ona yurti Zamaxsharda, Xorazmda, Tabaristonda, Abivardda, Samarqandda, Bag'dodda, Damashqda, Halabda bo'lib qolmay, balki uning yetuk asarlari orqali undan saboq olib, dunyoning turli burchaklarida Zamaxshariyning shogirdiman deguvchilar ko'plab topilardi<sup>3</sup>.

Zamaxshariy arab tilini yoshligidan katta havas va ishtiyoq bilan o'rgandi, arablarning hayoti va ularning urf-odatlarini, turli lahjalarini uzoq davr tinimsiz tadqiq etdi. Allomaning arab-tiliga nisbatan mehri alohida bo'lgan. Shu boisdan ham, bu tilning grammatikasi, leksikasi, umuman arab tilshunosligiga oid bir qancha muhim asarlarni yaratgan. Uning dong'i ketgan "Muqaddamat al-adab", "Al-Mufassal", "Asos

<sup>3</sup> Uvatov U. O'zbekiston – Buyuk allomalar yurti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – B. 287.

al-balog‘a” kabi yirik ta’liflari mana shu yo‘nalishda yozilgan asarlardir. Arablarning: “Agar xorazmlik shu ko‘sa, cho‘loq Zamaxshariy bo‘lmaganida arablar o‘z tillarini bilmas edilar!” – deb, lo‘nda qilib allomaga yuksak baho berganlar. Arab tilini, uning behad katta imkoniyatlarini teran anglagan alloma barcha asarlarini arab tilida yaratgan. Bu tilni mukammal o‘zlashtirib olishi, albatta, katta mehnat va tinimsiz izlanishlar samarasidir. Alloma bir oyog‘i cho‘loqligiga qaramasdan, sayohatu safarlarga o‘ch bo‘lganligini yuqorida qayd qilgan edik. Darhaqiqat, ilm olishdek olijanob maqsad donishmandni uzoq o‘lkalarga chorlagandi. “Mening sochlarimni oqartirgan narsa bu muttasil kitob mutolaa qilish va tinimsiz sayohatlardir”, - deb allomaning o‘zi ham e’tirof etgan. Chindan ham bu hol ko‘plab insonlarni hayratga solgan.

Mashhur sharqshunos olim, akademik I.Y.Krachkovskiyning: “Yog‘och oyoqda yurganligiga qaramasdan, Mahmud Zamaxshariy o‘ta harakatchanligi bilan ajralib turgan”, - deb, yozishi ham bejiz emas. Alloma Zamaxshariy o‘z umrining aksar qismini xorijiy yurtlarda, musofirchilikda o‘tkazgan bo‘lsada, o‘z ona qishlog‘i Zamaxshar, ona vatani Xorazmni juda qattiq sevgan, haqiqiy vatanparvarlik hissiyotlarini namoyon qilgan holda yurtiga bag‘ishlab madhiyalar yaratgan. Xorazmni alohida iftixor va g‘urur bilan ta’riflaydi: “Xorazm zaminida shunchalik ko‘p ne‘matu fazilatlar mavjudki, dunyoning boshqa biror mamlakatida ham bularga o‘xshashlarini aslo ko‘rmadim”. Makka amiri Ibn Vahhos bilan Zamaxshariy o‘rtasidagi do‘stlik iplari tobora mustahkamlanib, hatto Zamaxshariy ushbu do‘stona aloqalariga atab bir qasida ham bitadi va amirning o‘ziga ko‘rsatib, katta iltifotini minnatdorlik tuyg‘usi bilan tarannum etadi. Makka amiri Ibn Vahhos ham yetuk olim va iqtidorli shoir bo‘lgani uchun ular bir-birlarining ijodlaridan o‘zaro unumli foydalanadilar. Zamaxshariydagi buyuk daho, ulkan ilm va yuksak insoniy fazilatlarining shohidi bo‘lgan Ibn Vahhos unga alohida mehr bilan munosabatda bo‘ladi. Makka amiri Ibn Vahhosning alloma Zamaxshariy haqidagi: “Dunyodagi barcha qishloqlar jam bo‘lib Xorazmning birgina Zamaxshar qishlog‘iga fido bo‘lsa, arziydi. Chunki bu qishloq ming yillarda bir marta tug‘ilishi mumkin bo‘lgan Zamaxshariydek buyuk allomani dunyoga keltirgan”, degan samimiy e’tirof va yuksak baho bergan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Uvatov U. Mahmud az-Zamaxshariy. – Toshkent: Abdulla Qodiriy, 1995. – B. 9.
2. Mahmud Zamaxshariy. Al-Kashshof an haqoiq g‘ovomid at-tanzil. J. I. – Qohira: Maktabat Misr, 2000. – B. 26.
3. Mahmud Zamaxshariy. Rabi‘ al-abror va nusus al-axyor. - J. I. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2006. – B. 48.
4. Mahmud Zamaxshariy. Al-Mufasssal fi san’at al-e’rob. – Bayrut: Dor al-jild, 1993. – B. 245.